

PEDAGOGIK MULOQOTNING VA UNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI

Maksadova Mexriniso Sayxonovna

Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti

Tarix kafedrası dotsenti

Tasallayeva Gulbahor Sag'dulla qizi

Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti

Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik muloqotning psixologik xususiyatlari, uning monologik va dialogik shakllari, o'qituvchi–o'quvchi munosabatlarida namoyon bo'ladigan uslublar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Pedagogik muloqotning turli darajalari - yuqori, o'rtacha va quyi shakllari hamda ular ta'lim jarayoniga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, diktatorlik, nokontakt, tabaqalashtirilgan diqqat, giporefleks, giperrefleks, qaysarlik, avtoritar va faol o'zaro ta'sir kabi o'qituvchi xulq-atvori modellarining mazmuni ochib beriladi. Maqolada optimal kommunikatsiyani shakllantirish, samarali muloqot to'siqlarini bartaraf etish va talabalarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, dialogik yondashuv, o'qituvchi modeli, kommunikativ to'siqlar, o'zaro ta'sir, talaba faolligi, psixologik xususiyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические особенности педагогического общения, его монологические и диалогические формы, а также различные модели поведения преподавателя в процессе взаимодействия с учащимися. Анализируются уровни педагогического общения — высокий, средний и низкий, и их влияние на образовательный процесс. Подробно раскрываются модели поведения учителя, такие как диктаторская, неконтактная, дифференцированного внимания, гипорефлексивная, гиперрефлексивная, упрямая, авторитарная и модель активного взаимодействия. В статье приводятся рекомендации по устранению коммуникативных барьеров, формированию оптимального педагогического общения и поддержке учебной инициативы студентов.

Ключевые слова: педагогическое общение, диалог, модель учителя, коммуникативные барьеры, взаимодействие, активность студентов, психологические особенности.

Abstract. This article analyzes the psychological characteristics of pedagogical communication, including its monologic and dialogic forms, and various teacher behavior models observed in interaction with students. It examines different levels of pedagogical communication—high, medium, and low—and their impact on the educational process. Detailed descriptions are provided of teacher behavior models such as dictatorial, non-contact, differentiated attention, hyporeflexive, hyperreflexive, stubborn, authoritarian, and

active interaction models. The article also offers practical recommendations for overcoming communication barriers, establishing effective pedagogical communication, and encouraging students' academic initiative.

Keywords: *pedagogical communication, dialogic approach, teacher behavior model, communication barriers, interaction, student initiative, psychological features.*

Oliygozlarda psixologik mashg'ulotlarni o'tkazish tajribasidan ma'lumki, talabalarga O'zining kasbiy sifatlarini takomillashtirish jarayonida pedagogik muloqotning o'rni muhimligi bilan alohida ahamiyatga ega. Pedagogik muloqotning monologik va dialogik shakllari bir-biriga qarama-qarshiligini ta'kidlash joiz. Monologik muloqotda sub'ekt-ob'ekt munosabatlari mavjud, o'quvchi, talaba, sinf, gurux muloqotning ob'ekti hisoblanadi. Dialogik muloqotda sub'ekt-sub'ekt munosabati mavjud bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi muloqoti o'zaro hamkorlikka asoslanadi va ta'limni insonparvarlashtirishga xizmat qiladi. Hamkorlikka asoslangan pedagogik muloqot ta'limga ijodkorlik ruhini bag'ishlaydi. Guruxda, o'quv jarayonida o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi pedagogik muloqotni shartli ravishda uchta darajaga ajratish mumkin. Pedagogik muloqotning yuqori darajasi o'zaro ishonch, bir-birini to'g'ri tushunish, samimiylilik xarakterda namoyon bo'ladi. Muloqot o'rtacha darajada bo'lishi, shuningdek, quyi darajada bir-birini tushunmaslik, begonalik sovuqlik tavsifida ham mavjud bo'ladi.

Pedagogik muloqot V. G. Anan'ev ta'kidlaganidek, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida ijobiy yoki salbiy xarakterda ham ko'zga tashlanadi. Ijobiy muloqot-ma'qullash, rag'batlantirish, maqtash, hazil-mutoyiba, iltimos, maslahat tavsifiga ega. Muloqotning salbiy ko'rinishi – tanbeh berish, mazag' qilish, ta'na qilish, do'q-po'pisa, haqoratlash tavsifiga ega bo'ladi.

Kommunikativ o'zaro ta'sirning yuqorida keltirilgan turli uslublari ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchi xulqining bir necha modellarini vujudga keltiradi (yaratadi). Psixologiya fanida ular shartli ravishda quyidagicha ifodalanadi.

1. Diktatorlik modeli. Bunday xulqli o'qituvchi o'zini juda balandparvoz tutadi, talabalar uning uchun hech narsa emas; oddiy tinglovchi xolos. Hech bir shaxsiy o'zaro ta'sir ko'rsatishi sodir bo'lmaydi. Pedagogik funksiyasi ta'limiy axborotlarni yetkazishdan iborat.

2. Nokontakt ("Xitoy devori") modeli. O'qituvchi xulqining bu modeli o'zining psixologik xususiyatlariga ko'ra diktatorlik modeliga yaqin turadi. Farqi shundaki o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi bir-biridan ozgina xabardor. O'zaro hamkorlik qilishga intilish yo'q. O'qituvchi o'zini katta tutadi, talaba bilan dialogik muloqot qilinmaydi.

3. Tabaqalashtirilgan diqqat modeli. Bu model o'qituvchining tanlangan ayrim talaba bilan muloqotga bo'lishiga asoslanadi. O'qituvchi talabalar jamoasi bilan emas, ayrim iqtidorli yoki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan muloqotda bo'lib, talabalar jamoasi haqida muloxaza (fikir) bildiradi. Buning natijasida o'qituvchi-talaba tizimida o'zaro tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning yaxlitligiga putur yetadi.

4. Giporefleks modeli. Bunday xulqli o'qituvchi pedagogik muloqotda o'zi bilan o'zi

ovora, gapi monologik xarakterda, tinglovchilarga e'tibor bermaydi. Natijada muloqot qiluvchilar bir- biridan ajralib qoladi, ta'lim- tarbiyaviy ta'sir yo'q darajada.

5. Giperrefleks modeli. O'qituvchining bunday xulqi psixologik –xususiyatiga ko'ra oldingi giporefleks modilining qarama - qarshisidir. O'qituvchi muloqot chog'ida o'zaro tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning mazmundan ko'ra tashqi jihatiga ko'proq e'tibor qaratadi, jahldor. Natijada o'qituvchining asabbuzarligi talabalarning qarshi hatti- harakatlariga turli holatlariga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda o'qituvchining yetakchilik roli sezilmaydi.

6. Qaysarlik modeli. Bunday hulqli o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarida o'zi bilgan didaktik qoidalarga amal qilaveradi, yangicha sharoitlarga moslashmaydi, mavjud real muomala vaziyatini anglamaydi, talabalarning tarkibi, yosh va etnik xususiyatlarini xisobga olmaydi natijada urinishlari bekorga ketadi pedagogik o'zaro ta'sirning samarasi past bo'ladi.

7. Avtoritar ("Men- o'zim") modeli. Ta'lim- tarbiya jarayonida o'qituvchi bosh figura va yagona xarakatlanuvchi shaxs. Savol va javoblar ham, mulohaza va dalillar ham undan chiqadi; ijodiy hamkorlik o'zaro ta'sir yo'q ; talabalarning o'quv-biluv faolligi juda past darajada. Natijada talabalar passiv tinglovchiga aylanib qoladi.

8. Faol o'zaro ta'sir ("Ittifoq") modeli. Bunday hulqli o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan muntazam dialogik muloqotda; talabalarning kayfiyatini ko'tarib, tashabbuskorliklarini rag'batlantirib boradi; muloqotda talaba bilan o'qituvchi o'rtasida ditansiya (farq) saqlangan xolda do'stona o'zaro ta'sir uslubi xukmron. Natijada o'quv, tashkiliy, axloqiy muammolar birgalikda xal etiladi. O'qituvchining bunday xulqi eng maxsuldor, samaradorlidir.

Ta'lim- tarbiya jarayonida qulay (optimal) pedagogik muloqot o'rnatishda quyidagicha kommunikativ usullardan foydalanish ma'qul

1. Pedagogik muloqotga salbiy ta'sir qiladigan kommunikativ to'siqlarni bartaraf etish usullari:

- o'quv mashg'ulotida talaba bilan o'qituvchi muloqoti paytida xatolardan qo'rqqmaslikka va muxitini yaratish;

- dialogda talabaning qatnashganini, javob berishga uringanini qo'llab quvvatlash;

- talabaning o'qituvchiga, o'rtoqlariga murojaat qilishini ma'qullash;

- o'quvchi tashabbus ko'rsatib, og'zaki javoblar berishini rag'batlantirish;

- kamgap, kommunikativ nuqsonli o'quvchining javob berishi, so'zlashi uchun qulay imkoniyat,shart- sharoit yaratish;

- o'quv mashg'ulotida ayrim talabalar o'rtog'ining ijodiy tashabbusini so'ndiruvchi xatti-xarakatiga yo'l qo'ymaslik.

2. Ta'lim jarayonida kommunikativ aloqaga qilishga yordam berish usullari:

- so'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni to'g'ri tuzish paytida yordamlashish;

- konkret muloqot paytida kommunikativ aloqa qilish norma va qoidalarining ma'nosini tushuntirish;

- kommunikativ aloqa usullarini, so'zlash va muomala texnikasini bevosita va bevosita o'rgatish;

- o'qituvchi bilan dialogda zarur xollarda talabaning hulqi, hatti-xarakatlarini o'rinli tanqid qilish;
 - talabaga bo'lgan e'tiborni uning o'qituvchi bilan dialogga kirishishini og'zaki va boshqa vositalar bilan qo'llab-quvvatlash;
 - talaba vaziyatni tushunib, fikrlarini jamlab olishiga imkon yaratish.
3. Talabalarning o'quv-biluv tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash usullari:
- O'quv mashg'uloti jarayonida talabalarni o'qituvchi bilan faol muloqot qilishda bevosita undash;
 - Tashabbus ko'rsatgan talabalarni guruh nima uchun rag'batlantirilayotganini guruh jamoasi oldida asoslash;
 - Talabalarga namuna bo'lishi uchun o'z xatolarini tanqid qilish; yuqoridagi usullardan foydalanish ta'lim jarayonida o'zining ijobiy samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. –T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. –544 bet.
3. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. –T.: “Noshir” nashriyoti, 2011.
4. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(2), 52-58.
5. Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. "YOSHLARNING IJTIMOYILASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari 5.2 (2025): 27-31.
6. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(2), 52-58.
7. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR 1.2 (2024): 48-51.
8. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 1285-1287.
9. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOYILASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI." ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION 1.2 (2024): 83-88.
10. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOY

FUNKSIYASI." TAMADDUN NURI JURNALI 1.64 (2025): 253-255.

11. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." Философия и право 26.3 (2023): 232-235.

12. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." Farg'ona davlat universiteti,(3) (2023): 67-67.

13. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJI VA OGOHLIK TUSHUNCHASI MAZMUN-MOHIYATI." CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES. Vol. 1. No. 7. 2026.

14. Nomozov Xurshid. "AXBOROT JAMIYATI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI;(FALSAFIY TAHLIL QILISH)." CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES. Vol. 1. No. 7. 2026.

15. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.5 (2021): 215-222.

16. Ro'ziboyev, Dilshod. "QASHQADARYO VOHASIDA QORAKO 'LCHILIKKA BO 'LGAN E'TIBOR." TAMADDUN NURI JURNALI 9.60 (2024).

17. Ro'Ziboyev, Dilshod A'Zam O. "QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIKNING IQTISODIY HAYOTDAGI O 'RNI VA SOVET HOKIMIYATINING CHORVA OZUQASI SIYOSATI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.11 (2022): 1008-1016.

18. Рўзібоев, Дилшод Аъзам Ўғли. "XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.3 (2022): 943-952.

19. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.5 (2021): 215-222.

20. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING GNOSEOLOGIK JIHATI VA PRAKSIOLOGIK QIYMATI." SHOKH LIBRARY (2025).

21. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING NAZARIY JIHATLARI VA PRAKSIOLOGIK AHAMIYATI." TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI 1.5 (2025): 140-146.

22. Ниёзов, С. С. "Перспективы развития экотуризма в Узбекистане." Актуальные вопросы гуманитарных наук: теория, методика, практика. 2022.

23. Максадова, Мехринисо Сайхановна. "ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ МОЛОДОГО ПЕДАГОГА." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 5 (2018): 43-44.

24. Sayxonovna, Maksadova Mekhriniso. "PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PRIMARY SCHOOL TEACHER PROFESSIONAL TRAINING." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071 11.04 (2022): 15-20.

25. Sayxonovna, M. M. (2022). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF

MODERN PRIMARY SCHOOL TEACHER PROFESSIONAL TRAINING. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 11(04), 15-20.

26. Maksadova, Mehriniso. "INTEGRATION OF YOUNG TEACHERS INTO THE PROFESSIONAL ENVIRONMENT." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.2 (2025): 1117-1121.

27. Максадова, Мехринисо Сайхановна. "ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 3 (2015): 105-108.

28. O'G'LI, ABDULLAYEV XURSHID MUXTOR, and KENJAYEV ZARMAMAT. "AXBOROTNING JAMIYATDAGI O'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 32-34.

29. Kenjaev, Zarmamat. "POLITICAL CULTURE: THE BASIS OF STATE STABILITY AND WELL-BEING OF CITIZENS." *НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: СОХРАНЯЯ ПРОШЛОЕ, СОЗДАЁМ БУДУЩЕЕ*. 2021.

30. Kenjaev, Zarmamat Tuymurodovich. "The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 822-825.

31. Kenjaev, Z. T. (2021). The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 822-825.

32. Nurillayevich, Omonov Bahodir. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARNING KUCHAYISHI VA UNGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI." *Conferences*. Vol. 1. No. 3. 2025.

33. Nurillaevich, Omonov Bakhodir. "MANIFESTATIONS OF THE ANCIENT ECOLOGICAL WORLDVIEW." *CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES*. Vol. 1. No. 6. 2025.

34. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ." *International Journal American Journal of Modern World Sciences* 2.11 (2025): 61-73.

35. OMONOV, Baxodir. "ETNIK NIZOLARNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI GEOSIYOSIY MUNOSABATLARIGA TA'SIRI." *«ACTA NUUZ»* 1.1.1 (2025): 164-166.